

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING TASNIFLANISHI

Qobilova Maxfuza Sherali qizi

Profi University Navoiy filiali

Ingliz tili o‘qituvchisi NDU doktoranti

[Tel:\(93\)085-42-14](tel:(93)085-42-14)

email: maxfuza.qobilova.98@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tasvir vositalarining turlari va ularning xususiyatlari, shuningdek, ularning tilshunoslikda tasniflanishi ko‘rib chiqiladi. Badiiy tasvirlar, odatda, tilda mavjud bo‘lgan so‘z va iboralar orqali tasavvur va his-tuyg‘ularni ifodalashni maqsad qilgan bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida stilistik vositalar adabiy tilni boyitishda, uning estetik imkoniyatlarini kengaytirishda va o‘quvchiga chuqur ta’sir o‘tkazishda muhim rol o‘ynaydi. Stilistik vositalar – bu tilning badiiy, estetik va ma’naviy jihatlarini ifodalash uchun ishlatiladigan so‘z yoki iboralar orqali yaratilgan ifodalovchi elementlardir. Ular asosan adabiy tilda, ayniqsa, she’r va nasrda keng qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tasvir vositalari, estetik imkoniyatlar, stilistik vositalar, adabiy til.

КЛАССИФИКАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются виды художественных образных средств и их особенности, а также их классификация в лингвистике. Художественные образы, как правило, направлены на выражение представлений и эмоций через слова и фразы, существующие в языке. В узбекском языкознании стилистические средства играют важную роль в обогащении литературного языка, расширении его эстетических возможностей и оказании глубокого воздействия на читателя. Стилистические средства – это выражающие элементы, создаваемые через слова или фразы, используемые для выражения художественных, эстетических и моральных аспектов языка. Они широко применяются в литературном языке, особенно в поэзии и прозе.

Ключевые слова: художественные образные средства, эстетические возможности, стилистические средства, литературный язык.

CLASSIFICATION OF ARTISTIC EXPRESSIVE MEANS IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract. This article discusses the types of artistic imagery tools and their characteristics, as well as their classification in linguistics. Artistic images are generally aimed at expressing ideas and emotions through the words and phrases existing in the language. In Uzbek linguistics, stylistic tools play an important role in enriching the literary language, expanding its aesthetic possibilities, and having a profound impact on the reader. Stylistic tools are expressive elements created through words or phrases used to convey the artistic, aesthetic, and moral aspects of language. They are widely used in literary language, especially in poetry and prose.

Keywords: artistic imagery tools, aesthetic possibilities, stylistic tools, literary language.

Kirish. Badiiy stilistik vositalar adabiyotda muayyan tasvirlarni yaratish, o'quvchining yoki tinglovchining his-tuyg'ularini uyg'otish va ma'lum bir ma'no yoki g'oyani kuchaytirish uchun ishlatiladi. Ular yordamida adiblar o'z asarlarini nafaqat mazmunan boyitadi, balki estetik jihatdan ham mukammal qiladi. Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida halqiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi.[2,18] Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday ifodalashni ham muhim deb mhisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi[3,108].

Asosiy qism. O'zbek tilida stilistika fani turli nuqtai nazarlardan o'rganiladi. Akademik V.V. Vinogradov stilistikani o'rganishda uchta o'zaro bog'liq, lekin funksional jihatdan farqli bo'lgan aspektlarni ajratib ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydi:

- Tilning funksional stillarini o'rganuvchi stilistika, yoki struktural stilistika deb ataladi. Ushbu aspekt tilning rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy kabi stillarining o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, har biri tilning struktural elementlarini ifodalaydi.

- Nutq stilistikasi, bu turli janrlardagi semantik va ekspressiv-stilistik elementlarni o'rganadi hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tahlil qiladi. Uning asosiy maqsadi tilning barcha stillarini, shu jumladan og'zaki va yozma shakllarini, adabiy va so'zlashuv nutqini o'rganishdir. Bu soha nutq shakllaridagi til birliklarining ishlatilish tezligini, fikr ifodalashda til vositalarining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanilishini tahlil qiladi hamda ularning qo'llanish usullarini aniqlaydi.

- Adabiyot stilistikasi va yozuvchi stilini o'rganish. Ushbu aspekt yozuvchining badiiy asar yaratishda ifoda vositalarini qanday ustalik bilan ishlatishini baholashga qaratilgan.[1,7]

Vinogradov tomonidan keltirilgan birinchi va ikkinchi aspektlar stilistikani o'rganishning asosini tashkil etsa, uchinchi aspekt adabiyotshunoslik sohasiga oiddir. Badiiy adabiyot

stilistikasi bu fanning alohida bir shakli hisoblanadi, chunki u boshqa nutq uslublaridan farqli o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Badiiy adabiyot stili o‘z qamrovi bilan ajralib turadi, ya'ni barcha til uslublarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, stilistika ikki asosiy soha bo‘yicha ajratilishi mumkin:

- **Nutq stilistikasi**, bu funksional til stillarini o‘rganadi, jumladan so‘zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik stil va badiiy stil.

- **Lingvistik stilistika**, u quyidagi turlarga bo‘linadi: a) Fonetika stilistikasi b) Leksik stilistika c) Grammatik stilistika (o‘z ichiga morfologik va sintaktik stilistikani oladi).

- **Fonetika stilistika**. Stilistika belgilari barcha til birliklarida mavjud. So‘zlovchining maqsadi va aloqa kontekstiga qarab fonetik, morfologik, sintaktik va leksik elementlarning qanday qo‘llanilishi stilistikaning muhim jihatidir.[4,26]

Fonetika nutq organlarining tovush hosil qilish jarayonidagi harakati va holati, tovush o‘zgarishlarini boshqaruvchi prinsiplari, shuningdek, intonatsiya (ohang) kabi muhim elementlarni o‘rganadi. Fonetika stilistikasi esa, tovushlar o‘rtasidagi ifodali bog‘lanishlarning imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, nutq tovushlarini tilning qudratli vositalariga aylantirish usullari va prinsiplari bilan shug‘ullanadi. Fonetika stilistikasi asosan nutq tovushlarini kommunikatsiyaning ta'sirini oshirish uchun qanday strategik tarzda qo‘llashni o‘rganadi. Tovushlar va intonatsiyani ifodalilikni kuchaytirish uchun qo‘llash usullari xilma-xildir. Alliteratsiya, assonansiya va tovushning turli shakllarini takrorlash kabi vositalar emotsional va ifodali nutq yaratishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, narsa va hayvonlarning tovushlarini taqlid qilish g‘oyalarni bo‘rttirib ifodalash va ularga chuqurlik qo‘shish uchun ishlatiladi. Ushbu usullar nasr, maqol, matallar, xalq ertaklari va epik she'riyatda ham uchraydi.

Unli va undosh tovushlarning fonetik uyg‘unlashuvi va takrorlanishi nafaqat nutqni ohangdor va jalb qiluvchi qiladi, balki til ma'lumotlarini saqlashni osonlashtiradi. Xushohang nutq yaratish usullari ayniqsa she'riy nutqda o‘ziga xosdir. Poetik nutq ma'lum bir intonatsiya tartibiga rioya qilgan holda, hayajonli ritmik ifoda shaklini anglatadi. She'riyatda intonatsiyani boshqaradigan vositalar, masalan, ritm, qofiya, radif va bandlar keng qo‘llaniladi. Natijada, she'r tuzilishi fonetik stilistikaning alohida sohasi sifatida ajralib turadi. Shundan kelib chiqqan holda fonetik stilistik vositalar 2 guruhga bo‘linadi:

- Muallifga xos vosialar
- Ijroga xos vositalar

Muallifga xos bo‘lgan fonetik vositalarga ritmika, vazn, qofiya, alliteratsiya, assonans va boshqa talaffuzga oid vositalarni o'z ichiga oladi. Ijro etishga xos bo'lgan vositalarga esa intonatsiya, pauza, fraza va mantiqiy-logik urg‘u, so‘zning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, to'liq va to'liqsiz talaffuzlar kiradi.

Qofiya. She'riy misralardagi ayrim so‘zlarning, ba‘zan qo‘shimchalarning bir xilda o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi qoliya deyiladi. Qofiyalar a-a-a-b, a-b-a-b, a-b-v-b kabi shaklda ifodalaniladi Masalan:

Do ‘st bilan obod uying, a

Gar bo ‘isa u **vayrona** ham. **b**

Do 'st qadam qo ‘ymas esa, v

Vayronadir **koshona** ham. **b**

(Erkin Vohidov)

Fonetik stilistika, asosan, so‘zlashuv stilini qamrab oladi. So‘zlashuv stiliga xos so‘zlar ko‘pincha amaldagi adabiy me‘yordan l'arq qiladigan xususiyatlarga ega:

1. So‘z tarkibidagi tovushning o‘rin almashuvi; **qirgiiy-qiygiir, aylanayin-aynalayin, la'nat-na'lat, sharpa-shapra, supra-surpa** shaklida bo‘ladi.

2. So‘z tarkibidagi ba‘zi tovushlarning tushib qolishi: **Qulflamoq-quflamoq, tashla-tasha, bo'lsa-bo'sa, bargikaram-barikaram** kabi.

3. So‘zda biror tovushning orttirilishi: **korchalon-korchallon, toila-toilla, qamchi-qamchin** kabi.

4. So‘zdagi biror tovush o‘miga ikkinchisini ishlatish hollari: **munchoq-mo'nchoq yoki bo'nchoq, ko'ylak-konnak yoki ko'ynak, nusxa-nusqa, bog'lamoq-boylamoq, ko'mirchak-kemirchak, qalmoq-qarmoq, tannov-tarnov** kabi.

5. O‘zak-negizda tushib qoladigan ba‘zi qisqartirmalar: **Olibdi-opti, bo'libdi-bopti, kelibdi-kepti** kabi.

Bunday liolat, ayniqsa, yozma va og‘zaki nutq ifodalanadigan dostonlarda uchraydi.

Assonans. Misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning oliangdosligi assonans deyiladi. Bunda a-o, u-o‘. o-o‘, i-e tovushlari ohangdoshli bo‘lib keladi. Bunday xususiyat nutqning jarangdor bo‘lisliini ta‘minlaydi. Masalan:

Olam aro yurtlaming eng ajosi,

Ona yurtim husningning men shaydosi.

Baxtiyorman muhabbating qoyonsam,

Shudir qhdim, shudir bqxtim ma 'nosi. (Po‘lat Mo‘min)

Alliteratsiya. Lotincha «litera» so‘zidan olingan bo‘lib, she‘rdagi har bir misrada bir xil undosh tovushlarning takror ishlatilishi alliteratsiyadir. Bunga shoir Erkin Vohidovning **q** tovushi bilan boshlanadigan she‘rini misol qilib keltirish mumkin:

Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz,

Qilur qatlimga qasd, qayrab qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab, qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan

Qarab qo‘ygil qiyokim, qalbni qizdorsin quyoshing, qiz.

Assonans va alliteratsiya birgalikda qo‘llanib, nutqning ohangdorligini yanada oshiradi. Bu bilan nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga tez ta‘sir qiladi. Masalan:

Oy momo cho‘milgan qy buloq,

Oy buloq, ko‘nglimni yoy buloq.

Kuylagan kuyingdan o‘rgilay,

Anvoyi kuylarga boy buloq. (Turob To‘la)

Fonetik stilistikani bilish ijodkorlar uchun ahamiyatlidir. Ular yaratgan asarlarida fonetik stilistikani o‘z o‘rnida qo‘llasalar, o‘quvchilar va tinglovchilarning e‘tiborini tez jalb qiladilar. Bu bilan matnning o‘qishlilikini ta‘minlaydilar va o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishadilar. Ayniqsa, jumalistlar lavha, ocherk, adabiy portret yaratganlarida o‘rnini topib, fonetik stilistikadan foydalansalar, asarlari belakror, ta‘sirchan, ohangdor bo‘ladi. Ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafa bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching kesatiq, olqish, so‘roq, ta‘kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo‘llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar.

26. Birdan ortiq yozish unlilarni. Cho‘zib talaffuz qilinganligi tushuniladi bunda unlini. Oydinlashtiriladi voqelikka munosabati talaffuz qilish orqali qahramonning unlini cho‘zib. Ifodalashda foydalanishi ta‘kidlanadi ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me‘yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini.

Masalan: belgining kuchsizligi: *Ortiq jizzaki ko‘rinmaslik* uchun *bos-i-iq* tovush bilan dedi... (P.Qodirov). Belgining ortiqqligi: *Uzo-oq yo‘l, ahyo-onda bir keladi, qato-or imoratlar, o‘yla-ab tursam, o‘g‘lim, dunyoni ishi qiziq.* (A.Muxtor) «*Sharq*» sahnasi bilan *"Turon"ning to‘rtta karnayi: g‘o-o-o-o-o-t, go‘-o-otu-u-u g‘o-o- o-ot!G‘ot-g‘otg‘ot! Ha, tovushing o‘chkur, ha, egasiz qolg‘ur!!* (A.Qodiriy)

27. Birdan ortiq yozish undoshlarni. Aslida orfoepik me‘yor bo‘yicha so‘zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan.

Masalan, belgining ortiqqligi; *Siz aslida uchchiga chiqqan muttaham ekansiz!* (gazetadan), Harakatning davomiyligi: - *Mening xotinim bo‘lib, aroq ochishni bilmaysanmi? – dedi mingboshi, xoxolab kuldi. - o‘rgan! Mana qarab tur! – Shishaning tagiga yo‘g‘on shapalog‘I bilan ikki marta urdi, po‘kak chachrab chiqib shiftga tegdi, so‘ngra u yerdan sachrab tovchadagi katta jomga kelib tushdi, «jar-r-rang!»... etdi jom. -Ha-ha-ha!.. – dedi mingboshi. Jomlaringni jaranglatdim. sintaloq!* (Cho‘lpon). *o‘h-ho‘,bunaqa sigir bozorda falon pul bo‘lsa kerak.* (S.Ahmad). Yarim soatlik qonli *"g‘ov-v-v-v, g‘uv- v-v, ov-v-v-v-v, ov-v-v-v»dan so‘ng Mallaxonning davangisi mag‘lub bo‘lib, faje bir suratda yaralandi.* (A.Qodiriy). Harakatning oniyliigi: *Salimani ko‘rishi bilan Ziynat xola zippilab ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.* Ovoz kuchining balandligi: *"Bummm" degan tovush eshitildi-yu, ko‘kni chang-to‘zon qopladi.*

Rus va Yevropa filologik an‘anasida **geminatsiya** nomi bilan yuritiladigan hodisa mavjud. Qo‘sh undoshlik - ikki aynan bir xil undoshii holatning yuzaga kelishi» tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida izohlanadi.

"O‘zbek tili tarixiy fonetikasi" o‘quv qo‘llanmasida esa bu hodisa "Qo‘shoqlanish" yoki "ikkilangan undosh" deb yuritiladi. Masalan, Ayyorlikda **uchchiga** chiqqanman deb maqtansam *yolg‘on emas* (Oybek). *Uni ayblashga sizning ma‘naviy Haqqingiz yo‘q, uka! - dedi g‘azab bilan* (gazetadan).

Leksik stilistika. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay

darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilida quydagi turlarga ajratiladi

28. **ma'nodosh so'zlar** – uch guruhga bo'linadi : 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Masalan :

Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi. (Cho'lpon)

Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq

Qurvon bibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.

29. **shakldosh so'zlar** – bunday so'zlar omonimlar deb ataladi va ular uchta turga bo'linadi: Omoleksema - qovoq-I (inson a'zosi) –qovoq-II (o'simlik nomi)

Omograf - tom-I (uyning tomi) – tom-II (jild), atlas-I (ipakdan tayyorlangan mato turi) - atlas-II (xarita)

Omofonlar- yot(<yod) - yot, sutxo'r(<sudxo'r) - sutxo'r

30. **Paronimlar** - aytiladi. Abzal (asli afzor-asbob egar-jabduq) - afzal (fazl so'zining ortirma darajasi), xalos (ozod bo'lish) -xolos (faqat), xush (yaxshi, yoqimli) - hush (insonning sezish, idrok etish qobiliyati).

31. **Zid ma'noli so'zlar** (antiteza) - *Hali ancha balandda bo'lsa ham uning kamolidan zavoli yaqinroq ekani ko'rinib turardi. Shuncha yer qo'ldan chiqqan bo'lsa, uning baravariga qancha davlat qo'lga kirgandir,* muni xudo biladi-yu xudoning sevimli bandasi qorako'z Miryoqub biladi!.. (Cho'lpon)

32. **ko'p ma'noli so'zlar** – *Yelkamda o'n putdan o'ttiz put yukim bor... - dedi mingboshi. Bu ham baqirishga yaqin bir ovoz bilan aytilgan edi. Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar. Xadichaxonning fikricha, mingboshiga «irim» qilgan edilar. Endi uni «qaytartirmoq»dan o'zga iioj yo'q edi. Bu fikr boshqa kundoshlarning miyalaridan bham o'tmadi emas... (Cho'lpon)*

Grammatik stilistika morfologik va sintaktik stilistik guruhlarni o'z ichiga oladi.

Morfologik stilistik birliklar badiiy matnda kenh qo'llanilib, morfologik parallelism, affiksial sinonimiya, affiksial omonimiya, affiksial antonimiya, antroponim, antonomasiyalarni o'z ichiga oladi.[5,38]

Morfologik parallelizm deb «nutq parchasida mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar, grammatik vositalarning qayta qo'llanilish usuli. Bu o'rinda bir sintaktik qurilma doirasida parallel qo'llanuvchi yordarnchi so'zlar, forma yasovchi qo'shimchalarning aynan

takrorlanishi nazarda tutiladi”. Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan she’riy nutqda parallel ravishda qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi.

*Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim hok o‘lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.* (E.Vohidov)

Sintaktik stilistik vositalar. Badiiy matnning tasirchanligini oshirish uchun sintaktik stilistik vositalardan keng qo‘llaniladi. Nutqning ekspressivligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib brogan tilshunos olim Adham Abdullayevning takidlashicha, antiteza, monolog, sukut, inversiya takroriy gaplar, ritorik so‘roq gaplar ifodaning o‘ta tasirchanligini ifodalash uchun ishlatiladi. “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” kirobi mualliflarining takidlashicha badiiy matnning sintaktik birliklari quydagi turlarni o‘z ichiga oladi: anafora, epifora, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so‘roq. [6,57]

Badiiy matnning bo‘yoqdorligini oshirish uchun bir xil shakldagi gaplar ko‘p qo‘llaniladi va bu atama o‘zbek tilshunosligida parallelizm deb ataladi. Masalan: *Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi, Molxona taraf quloq tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti - bilolmaydi* (T. Murod).

Emotsional gaplar – so‘zlovchining yoki asar qahramonining bo‘layotgan hodisaga nisbatan bergan his hayajoni va emotsiyalarini ifodalovchi gaplar hisoblanadi. Masalan: *Qanday yoqimli tong! To‘yib-to‘yib nafas olasan! Buncha fusunkor bo‘lmasa bahor! Qishlog‘imiz naqadar go‘zal-a!* (Gazetadan).

Ritorik so‘roq – mazmunida tasdiq va inkorni ifodalovchi va javob talab qilinmaydigan gaplar bo‘lib matnning emotsional ekspressivligini oshiradi. Ko‘pincha ritorik so‘roq gaplar tarkibida *nahotki, axir kabi ta‘kidni kuchaytiruvchi so‘zlar* keladi.

*Mashrab osilganda qayoqda eding?
Cho‘lpon otilganda qayoqda eding?
Surishtirganmiding Qodiriyini yo
Qalqon bo‘lganmiding kelganda balo?
Hukmlar o‘qilur sening nomingdan,
Tarixlar to‘qilur sening nomingdan.* (Abdulla Oripov)

Inversiya gap bo‘laklarining joylashish tartibining ma‘lum bir maqsadda o‘zgarishi bo‘lib, badiiy matnda qahramon nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirish uchun foydalaniladi: *Bolangni olib ketsang-chi! Ko‘rmayotipsanmi, bu yerda odamlar ishlab o‘tirdi!* (A.Qahhor) - *Tashla u toshni! - deb do‘q qilib qoldi onam. Ko‘chaning o‘rtasidan haydatib ketdim aravani. - Bilasizmi, nimaga ergashdim sizga? - deb qolsa bo‘ladimi shunda.* (Sh.Xolmirzayev).

Ellipsis nutq jarayonlarida gap bo‘laklarini ma‘lum maqsadda tushurish hodisasiga aytiladi. Ushbu tushurilish tildagi lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Masalan: *Avaylaganing shu bo‘lsa... uning zardali ovozi ham jonimga tegdi.* (Y.Akram) *Iltimos to‘xtang... Anavinga qarang!* (Sh.Xolmirzayev) – *Nima qilardingiz shu sassiq bilan tortishib?*

(S.Ahmad) –*Topamiz-da, - dedim. Talantlar seni redaksiyanga emas, redaksiyam bo‘lmasayam menga keladi.*(Sh.Xolmirzayev)

Sukut – so‘z va so‘z birikmalarining gap oxirida tushurilib qolishi hisoblaniladi. Masalan: - *Bu tuproq... Oqposhsho gapini topolmay qoldi. Ketiga qayrilib qaraydi.* (T.Murod). – *Gap lo‘ndasi...Shvetsiya vaziri Falonchiyev janoblari aytganlariday, bu tuproq O‘rusiya tojidagi oliy qimmat dur, ha, dur!* (T.Murod)

Gradatsiya nutq bo‘laklarining biridan ikkinchisini kuchaytirib borish orqali hosil qilinadi. Ushbu usul nutqdagi tuyg‘u kechinmalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko‘ra: ko‘tariluvchi gradatsiya va pasayuvchi gradatsiya; ifoda usuliga ko‘ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko‘ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya. Masalan:

Men nadomatlarni unutganman. Men meros dovlamayman. Men molparast ham emasman.

Lekin qani mening yetti ma‘dandan eritib quyilgan darvozam?

Jahonning bir mo‘jizasi?

Oltin, temir, qurch, qalay, po‘lat, mis, kumush darvozam?

Bibixonim darvozasi?

Yo‘qolgan darvoza...

O‘g‘irlangan darvoza...

Tanga qilib maydalangan darvoza... (I.G‘afurov)

Antiteza mazmuniy jihatdan bir biriga qiyoslanuvchi fikr tushuncha va timsollarni bir biriga qarama qarshi qo‘yilishi hisoblanadi: *Nodonlar davrasida kar bo‘l. Donolar davrasida soqov bo‘l... (O‘.Hoshimov), Bolalikda dunyo keng-u kiyim tor. Keksayganda kiyim keng-u dunyo tor... (O‘. Hoshimov).*

Adabiyotda oksyumoron deb ataluvchi hodisa bo‘lib, bir biriga zid ma‘noli tushunchalarni birga qo‘llanishidir. *Sokin hayqiriq (M.Ali). Otashin muz, yong‘inli daryo, so‘qir lomakon, qora nur, yalang‘och shuur, yaxlagan sarob (R.Parfi), oppoq tun, so‘zsiz suhbat* kabi birikmalar oksyumoronga misol bo‘ladi.

Anafora - yuqoriga ko‘tarilish degan ma‘noni bildiradi. Bunda har bir misra, abzas va gap boshida bir xil takrorlanuvchi konstruksiyalar ishlatiladi. Bular so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklida bo‘lishi mumkin. Masalan, **Birga** tug‘ilmoq bor, **birga** turmoq yo‘q.

U alla aytmasa, tonglar otmaycii,

U alla aytmasa, quyosh botmaydi.

U alla aytmasa, dillarning g‘ashin,

Kulgular yuvmaydi va yo‘qotmaydi. (Saida Zunnunova)

Epifora — lotincha so‘z bo‘lib, ep/-keyin, /oras,-ma‘no demakdir. So‘zlar oxirida unli yoki undosli tovushlarning, misralar, gaplar, abzaslar oxirida bir xil konstruksiyalarning takrorlanishiga epifora deyiladi. Anafora og‘zaki va yozma nutqda, epifora esa, asosan, yozma nutqda qo‘llaniladi:

Bunda bor: harorat, muhabbat, Shafqat va mehnat nonini ko 'ramiz baham. (G 'afur G'ulom) Vaqt hamma narsadan kuchli, **deydilar**, quyosh, tovush va nur harakatini taajjublanarli tez, **deydilar**, atom va vodorod quvvatini tengsiz va beqiyos qudrat, **deydilar**. (Vohid Zohidov)

Xulosa. Badiiy stilistik vositalar adabiyotda til va uslubning ajralmas qismi bo'lib, adibning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quvchiga chuqurroq ta'sir o'tkazishga yordam beradi. Ularning tasnifi va tahlili badiiy asarlarda ma'no, tasvir va hissiyotlarni aniqroq, ta'sirchanroq ifodalash imkonini yaratadi. Har bir stilistik vosita o'ziga xos ma'no va estetika yaratish uchun ishlatiladi, bu esa asarning ichki tuzilishini boyitadi va uni yanada ta'sirchan qiladi.

Badiiy stilistik vositalarning turli xil tasniflanishi ularning adabiyotdagi o'rnini va funksiyasini yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Leksik, sintaktik, semantik va fonometrik vositalar birgalikda ishlash orqali asarlarning mazmunini chuqurlashtiradi, nutqning ta'sirini kuchaytiradi va o'quvchi yoki tinglovchining estetik tajribasini boyitadi.

Shunday qilib, badiiy stilistik vositalar nafaqat adabiy asarlarning stilistik jihatini aniqlash, balki ularning ma'naviy, hissiy va estetik boyligini o'rganish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularni to'g'ri tushunish va qo'llash orqali adabiyotning yanada chuqurroq qirralarini kashf etish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Султонсаидова С., Шарипова У. — Ўзбек тили стилистикаси. — Т.: 2009. 7б
2. Gorelikova M. I., Magomedova D.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. — M: Russkiy yozik
3. Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. — Toshkent: 2004.
5. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2002.
6. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. — Toshkent: TDPU, 2001.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. — Toshkent: Fan, 2008.